YANGI O‘ZBEKISTON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

Ilmiy maqola YOITJ

Qabul qilindi: 7-oktabr 2026-yil Ma’qullandi: 10-oktabr 2026-yil Nashr qilindi: 13-oktabr 2026-yil

Vol. 3 • No. 10, Part 2 • 2026

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI BANKLAR (NEOBANKLAR) RIVOJLANISHI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Raimov Urazali Qurbanaliyevich

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Surxondaryo viloyati Bosh boshqarmasi Tijorat banklarida davlat maqsadli dasturlari ijrosini monitoring qilish boshqarmasi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini ta'minlash bo‘lim boshlig‘i

https://doi.org/10.5281/zenodo.23333633

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O‘zbekiston bank tizimida raqamli banklar (neobanklar) shakllanishi va rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan. Raqamli banklarning faoliyat modellari, ularning moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o‘rni hamda rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan normativ-huquqiy, texnologik va risk bilan bog‘liq muammolar yoritilgan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida raqamli banklarni rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilgan va uni milliy bank amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank, neobank, fintex, moliyaviy inklyuziya, Open Banking, BaaS, kiberxavfsizlik, raqamli transformatsiya

KIRISH.

So‘nggi o‘n yillikda raqamli texnologiyalar bank xizmatlarini ko‘rsatish shaklini tubdan o‘zgartirdi. Jahon amaliyotida filiallar tarmog‘isiz, faqat mobil ilova va onlayn platforma orqali faoliyat yurituvchi raqamli banklar — neobanklar — an’anaviy banklarning jiddiy raqobatchisiga aylandi. O‘zbekistonda ham ushbu jarayon jadal kechmoqda va uning ahamiyatini quyidagi uchta asosiy jihat orqali ifodalash mumkin.

Birinchidan, mamlakatda bank xizmatlarining raqamli kanallarga ko‘chishi keskin tezlashdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda bank kartalari soni 68 mln donaga yetdi, mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi esa 1,6 barobar o‘sib, 646 trln so‘mni tashkil etdi [1]. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2024-yildagi 48 mln dan 2025-yilda 62 mln dan ortiqqa yetgan [2]. Bu ko‘rsatkichlar aholining raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan talabi yuqori ekanini va neobanklar uchun keng bozor mavjudligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, raqamli banklarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank xizmatlarini raqamlashtirish va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish asosiy vazifalar sifatida belgilangan [3]. Natijada 2020-yildan boshlab mamlakatda dastlabki raqamli banklar faoliyat yurita boshladi [4].

Uchinchidan, neobanklarning jadal o‘sishi bilan bir qatorda yangi turdagi risklar — kiberxavf, garovsiz iste’mol kreditlari bo‘yicha kredit riski va tartibga solishdagi bo‘shliqlar ham kuchaymoqda. Shu sababli raqamli banklarning rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning faoliyatidagi muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli banklar va moliyaviy texnologiyalar masalasi xorijiy hamda milliy iqtisodiy adabiyotlarda turli rakurslardan o‘rganilgan. T. Filippon tadqiqotida AQSh moliyaviy vositachiligining birlik xarajati axborot texnologiyalaridagi ulkan yutuqlarga qaramay bir asrdan ortiq vaqt davomida deyarli o‘zgarmay qolgani ko‘rsatib berilgan. Muallif fintex kompaniyalari aynan ushbu samarasizlikni bartaraf etish va moliyaviy xizmatlar narxini pasaytirish imkoniyatiga ega degan xulosaga keladi [5].

A. Takor o‘z ishida fintexning bank faoliyatiga ta’sirini umumlashtirib, raqamli platformalar bank xizmatlarining an’anaviy “qiymat zanjiri”ni bo‘laklarga ajratayotganini va to‘lovlar, kreditlash hamda depozit xizmatlari bo‘yicha raqobatni kuchaytirayotganini asoslaydi [6]. A. But va hammualliflar esa fintexdagi haqiqiy yangilik moliyaviy xizmatning mohiyatida emas, balki mijoz bilan raqamli interfeys va katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatida ekanini ta’kidlab, bu jarayon bir vaqtning o‘zida moliyaviy barqarorlik uchun yangi risklarni ham keltirib chiqarishini qayd etadi [7].

 © 2026 The Author(s) • CC BY 4.0

Tartibga solish masalalari bo‘yicha Xalqaro hisob-kitoblar bankining Moliyaviy barqarorlik instituti tadqiqotida bir qator mamlakatlar raqamli banklar uchun alohida litsenziyalash rejimlarini joriy etgani yoki ularni joriy etish arafasida ekani tahlil qilingan. Mualliflar raqamli banklarga nisbatan proporsional, ya’ni faoliyat ko‘lami va risk darajasiga mos keladigan talablarni qo‘llash zarurligini asoslaydi [8].

Milliy adabiyotlarda G.Sh. Umirova raqamli bankni mijozlarga mobil ilova va kompyuter tizimlari orqali, axborot texnologiyalari infratuzilmasi asosida, sutka davomida xizmat ko‘rsatuvchi bank sifatida ta’riflaydi va O‘zbekistonda dastlabki raqamli banklar 2020-yilda ro‘yxatdan o‘tganini qayd etadi [4]. U.M. Nazarova esa raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishini tahlil qilib, kiberxavfsizlik risklari, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining notekisligi va aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlikning pastligini asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatadi [2].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda neobanklarning iqtisodiy samarasi va tartibga solish tamoyillari keng yoritilgan bo‘lsa-da, milliy adabiyotlarda raqamli banklar asosan umumiy raqamlashtirish jarayoni doirasida o‘rganilmoqda. Neobanklarning alohida biznes-modellari, ularga xos risklar va ularni rivojlantirishning kompleks modeli yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy hisobotlari, raqamli banklarning ochiq moliyaviy ma’lumotlari, xalqaro moliya institutlarining tadqiqotlari hamda xorijiy va milliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Neobank deganda jismoniy filiallar tarmog‘isiz, mijozlarga to‘liq raqamli kanallar orqali xizmat ko‘rsatuvchi, bulutli texnologiyalar va ma’lumotlar tahliliga asoslangan kredit tashkiloti tushuniladi. Bunday banklarning asosiy raqobat ustunligi — past operatsion xarajatlar, xizmat ko‘rsatish tezligi va mijoz tajribasiga yo‘naltirilgan mahsulot dizaynidir. O‘zbekiston amaliyotida raqamli banklarning uchta asosiy modeli shakllangan:

To‘liq raqamli bank modeli — dastlabdan raqamli bank sifatida tashkil etilgan banklar. Mamlakatda bu yo‘nalishda Anorbank va TBC Bank 2020-yilda faoliyat boshlagan [4].

Ekotizim modeli — marketpleys, to‘lov xizmatlari va bank faoliyatini yagona platformada birlashtiruvchi model. Bunga Uzum guruhi misol bo‘ladi: guruh tarkibiga mamlakatdagi eng yirik xususiy bank — Kapitalbank kiradi [9].

Hamkorlik (BaaS) modeli — fintex kompaniyalari bank litsenziyasiga ega bo‘lmagan holda hamkor bank infratuzilmasi orqali moliyaviy mahsulotlarni taklif etadi.

Raqamli banklarning bozordagi o‘rni ularning asosiy ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistondagi yetakchi raqamli banklar va ekotizimlarning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	TBC Uzbekistan (30.06.2025)	Anorbank (2025-yil)	Uzum ekotizimi (2025-yil)
Mijozlar / foydalanuvchilar	20,8 mln ro‘yxatdan o‘tgan, 5,7 mln oylik faol	3,25 mln dan ortiq	4 mln dan ortiq karta chiqarilgan
Kredit faoliyati	Kredit portfeli 905 mln AQSh dollari (+105%)	Jismoniy shaxslarga 9,0 trln so‘m kredit (+47%)	Fintex hajmi 1,2 mlrd AQSh dollari (~3 barobar o‘sish)
Depozitlar	492 mln AQSh dollari (+86%)	8,23 trln so‘m (+47%)	3 oyda 50 mln AQSh dollaridan ortiq onlayn depozit
Bozordagi o‘rni	Chakana kreditlar bozoridagi ulush 5,1%	25 855 ta faol korporativ mijoz	Jami to‘lov aylanmasi 11,1 mlrd AQSh dollari

Manba: [10], [11], [9] manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan. Izoh: ko‘rsatkichlar turli davrlar va metodologiyalarga tegishli; Anorbank ma’lumotlari bankning o‘z e’lonidan olingan.

Jadval ma’lumotlari raqamli banklarning nihoyatda tez o‘sayotganini ko‘rsatadi: TBC Uzbekistanning kredit portfeli bir yilda ikki barobardan ziyod oshgan, foydalanuvchilar soni esa 31 foizga ko‘paygan [10]. Shu bilan birga, ro‘yxatdan o‘tgan va faol foydalanuvchilar o‘rtasidagi katta farq (20,8 mln ga nisbatan 5,7 mln) mijozlarni jalb qilish bilan ularni doimiy faol saqlash o‘rtasida hali bo‘shliq mavjudligini anglatadi.

Xorijiy tajriba neobanklar ko‘lami qanchalik katta bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Braziliyaning Nubank raqamli banki 2025-yil yakuniga ko‘ra mijozlari sonini 131 mln ga yetkazgan [12]. Gonkong, Singapur va Malayziya kabi mamlakatlar esa raqamli banklar uchun alohida litsenziyalash rejimla-

rini joriy etish orqali bozorga yangi ishtirokchilar kirishini rag‘batlantirgan [8].

Raqamli banklar rivojlanishidagi asosiy muammolar

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda neobanklarning rivojlanishiga quyidagi muammolar to‘sqinlik qilmoqda:


Normativ-huquqiy bo‘shliq. Mamlakatda raqamli banklar uchun alohida litsenziyalash rejimi mavjud emas, ular an’anaviy banklar bilan bir xil talablar asosida faoliyat yuritadi. Bu esa xalqaro amaliyotda tavsiya etilgan proporsional tartibga solish tamoyiliga to‘liq mos kelmaydi [8].

Kiberxavf va firibgarlik. To‘liq raqamli xizmat ko‘rsatish modeli kiberhujumlar, ijtimoiy muhandislik va identifikatsiya ma’lumotlarini o‘g‘irlash risklarini oshiradi [2].

Kredit riski. Neobanklarning kredit portfelida garovsiz iste’mol kreditlari ustunlik qiladi. Masalan, TBC guruhining garovsiz iste’mol kreditlari portfelining 54 foizi aynan O‘zbekiston bo‘linmasiga to‘g‘ri keladi [10]. Bunday sharoitda aholining qarz yuki ortishi xavfi mavjud bo‘lib, Markaziy bank iste’mol kreditlari bo‘yicha qarz yuki chegaralarini belgilashga kirishgan [1].

Raqamli tafovut. Raqamli xizmatlardan 18–35 yoshli aholi faol foydalansa-da, 55 yoshdan katta aholi orasida bu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda; ayrim hududlarda internet sifati ham yetarli emas [2].

Ma’lumot almashinuvi infratuzilmasining rivojlanmaganligi. Open Banking standartlari va mijoz roziligiga asoslangan ma’lumot almashinuvi tizimi to‘liq shakllanmagani muqobil ma’lumotlar asosida kreditga layoqatlilikni baholash imkoniyatini cheklaydi [7].



1-Rasm. O‘zbekistonda raqamli banklarni rivojlantirishning konseptual modeli

Ushbu modelni to‘rtta asosiy bosqichda quyidagicha izohlash mumkin:

1 NORMATIV-HUQUQIY ASOS (RAQAMLI BANK UCHUN ALOHIDA “O‘YIN QOIDALARI”)

Raqamli banklarga nisbatan ularning faoliyat ko‘lami va risk darajasiga mos proporsional talablar belgilanadi. Yangi ishtirokchilar dastlab cheklangan litsenziya asosida faoliyat yuritib, belgilangan mezonlarga erishgach to‘liq litsenziyaga o‘tadi. Regulyativ “qum quti” (sandbox) esa innovatsion mahsulotlarni nazorat ostida sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

2 TEXNOLOGIK INFRATUZILMA (MA’LUMOTLARNING ERKIN VA XAVFSIZ HARAKATI)

Open Banking standarti asosida mijoz roziligi bilan bank ma’lumotlari boshqa moliya tashkilotlariga xavfsiz uzatiladi. BaaS modeli fintex kompaniyalariga o‘z bank litsenziyasini olmasdan, hamkor bank infratuzilmasi orqali moliyaviy mahsulotlarni taklif etish imkonini beradi.

3 RISK-MENEJMENT (TEZKORLIK VA XAVFSIZLIK MUVOZANATI)

Sun’iy intellektga asoslangan skoring modellari muqobil ma’lumotlar orqali qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini aniq baholaydi. Antifrod tizimlari shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlaydi, qarz yuki limitlari esa aholining haddan tashqari qarzdor bo‘lib qolishining oldini oladi [13].

4 MIJOZGA YO‘NALTIRILGANLIK (XIZMATNI HAR BIR QATLAMGA YETKAZISH)

Raqamli savodxonlikni oshirish dasturlari keksa avlod va qishloq aholisini raqamli xizmatlarga jalb

qiladi. Kichik va o‘rta biznes uchun to‘liq raqamli kredit mahsulotlari hamda islomiy moliya tamoyillariga asoslangan raqamli mahsulotlar neobanklar mijozlar bazasini kengaytiradi.

O‘zbekiston bank tizimida modelni qo‘llash bo‘yicha ilmiy tavsiyalar

Raqamli bank litsenziyasini joriy etish: Markaziy bank tomonidan minimal ustav kapitali va boshqa talablar bosqichma-bosqich oshib boradigan raqamli bank litsenziyasi toifasini belgilash.

Open Banking me’yoriy asosini yaratish: API standartlarini, mijoz roziligini rasmiylashtirish tartibini va ma’lumot almashinuvi xavfsizligi talablarini belgilovchi normativ hujjat qabul qilish.

Kiberxavfsizlik va antifrod tizimini kuchaytirish: banklar o‘rtasida firibgarlik holatlari bo‘yicha ma’lumot almashinuvining yagona tizimini yaratish hamda biometrik autentifikatsiyani majburiy standartga aylantirish.

Mas’uliyatli kreditlash tamoyillariga rioya etish: sun’iy intellekt asosidagi skoring modellarini Markaziy bank tomonidan validatsiya qilish va qarz yuki ko‘rsatkichini har bir kredit qarorida majburiy hisobga olish.

Modelni joriy etishning ilmiy-amaliy afzalliklari

Moliyaviy inklyuziya: bank xizmatlaridan ilgari foydalanmagan aholi qatlamlari va hududlar raqamli kanallar orqali moliyaviy tizimga jalb etiladi.

Xizmat narxining pasayishi: filiallarsiz faoliyat yuritish operatsion xarajatlarni kamaytiradi, bu esa past foiz stavkalari va komissiyalarda aks etadi [5].

Raqobat muhitining kuchayishi: neobanklar an’anaviy banklarni o‘z xizmatlarini raqamlashtirishga va sifatini oshirishga undaydi [6].

Tizimli barqarorlik: proporsional tartibga solish va kuchli risk-menejment raqamli banklarning tez o‘sishi moliyaviy barqarorlikka tahdid solmasligini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli banklar O‘zbekiston bank tizimining eng tez rivojlanayotgan segmentiga aylandi. Bank kartalari soni va mobil operatsiyalar hajmining keskin o‘sishi aholining raqamli xizmatlarga tayyor ekanini, yetakchi neobanklarning ikki barobarlik o‘sish sur’atlari esa ushbu segmentning ulkan salohiyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, raqamli banklarning barqaror rivojlanishi normativ-huquqiy bo‘shliq, kiberxavf, garovsiz kreditlar bo‘yicha kredit riski va raqamli tafovut kabi muammolarni kompleks hal etishni talab qiladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Raqamli bank litsenziyasini joriy etish: raqamli banklar uchun bosqichma-bosqich (cheklangan litsenziyadan to‘liq litsenziyaga) o‘tish tartibini nazarda tutuvchi proporsional litsenziyalash rejimini yaratish.

Open Banking tizimini yo‘lga qo‘yish: mijoz roziligiga asoslangan ma’lumot almashinuvining yagona API standartini qabul qilish va uni barcha banklar uchun majburiy etib belgilash.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash: banklararo yagona antifrod platformasini yaratish va masofaviy identifikatsiyada biometrik tasdiqlashni kengaytirish.

Mas’uliyatli raqamli kreditlash: sun’iy intellekt asosidagi skoring modellarining shaffofligi va validatsiyasiga oid talablarni belgilash hamda qarz yuki limitlariga qat’iy rioya etilishini nazorat qilish.

Raqamli tafovutni qisqartirish: keksa avlod va qishloq aholisi uchun raqamli moliyaviy savodxonlik dasturlarini amalga oshirish, hududlarda internet infratuzilmasini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil uchun yillik hisobot. – Toshkent, 2026. – URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/964/07iq5gf3vjv0vw7636kvcccbudz35jdm/Yillik-hisobot-2025.pdf
2. Nazarova U.M. Bank tizimida raqamli moliyaviy xizmatlar: holati, taraqqiyoti va istiqboldagi vazifalar // Moliya va bank ishi jurnali. – 2026. – Maxsus son. – B. 150–153.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz
4. Umirova G.Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini yanada isloh qilish // “Raqamli texnologiyalar: iqtisodiyot va ta’lim tizimini rivojlantirish tendensiyalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – B. 243–244. – URL: https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/download/3119/825/4889
5. Philippon T. The FinTech Opportunity // NBER Working Paper. – 2016. – No. 22476.
6. Thakor A.V. Fintech and banking: What do we know? // Journal of Financial Intermediation. – 2020. – Vol. 41. – 100833.
7. Boot A., Hoffmann P., Laeven L., Ratnovski L. Fintech: what’s old, what’s new? // Journal of Financial Stability. – 2021. – Vol. 53. – 100836.
8. Ehrentraud J., Garcia Ocampo D., Garzoni L., Piccolo M. Policy responses to fintech: a cross-country overview // FSI Insights on policy implementation. – Basel: Bank for International Settlements, 2020. – No. 23.
9. Uzum. Uzum reports strong 2025 results as investments fuel sustained growth across fintech and e-commerce. – 12.02.2026. – URL: https://uzum.com/en/press-center/news-and-press-releases/
10. FF News. TBC Bank Group financial results: 2Q 2025. – 07.08.2025. – URL: https://ffnews.com/news/tbc-bank-group-financial-results-2025
11. Spot.uz. Anorbank: 2025-yil yakunlari. – 31.12.2025. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/12/31/anorbank/
12. Mobile Time. Nubank chega a 131 milhões de clientes. – 25.02.2026. – URL: https://www.mobiletime.com.br/noticias/25/02/2026/nubank-131-mi-clientes/
13. Gambacorta L., Huang Y., Qiu H., Wang J. How do machine learning and non-traditional data affect credit scoring? New evidence from a Chinese fintech firm // BIS Working Papers. – 2019. – No. 834.

ARTICLE INFORMATION IN OTHER LANGUAGES

ENGLISH

Abstract. This article analyses the current state of the emergence and development of digital banks (neobanks) in the banking system of Uzbekistan. It examines the business models of digital banks, their role in expanding financial inclusion, and the regulatory, technological and risk-related constraints that hinder their growth. Drawing on international experience, the paper develops a conceptual model for the development of digital banks and offers scientific and practical recommendations for its implementation in national banking practice.

Keywords: digital bank, neobank, fintech, financial inclusion, Open Banking, BaaS, cybersecurity, digital transformation.

РУССКИЙ

Аннотация В статье анализируется современное состояние формирования и развития цифровых банков (необанков) в банковской системе Узбекистана. Рассмотрены бизнес-модели цифровых банков, их роль в расширении финансовой доступности, а также нормативно-правовые, технологические и связанные с рисками проблемы, сдерживающие их развитие. На основе зарубежного опыта разработана концептуальная модель развития цифровых банков и даны научно-практические предложения и рекомендации по её внедрению в национальную банковскую практику.

Ключевые слова: цифровой банк, необанк, финтех, финансовая доступность, Open Banking, BaaS, кибербезопасность, цифровая трансформация.